ISSN:2308-5703
Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* November, 2026

Xalqaro shartnomalar Konstitutsiyadan ustunmi?

Azimova Sevara Azizxon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-kurs talabasi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24338418

Tasavvur qiling, sudda fuqaro o‘z huquqini himoya qilib, O‘zbekiston ratifikatsiya qilgan xalqaro paktdagi moddaga tayanadi. Qarshi tomon esa milliy qonunning boshqacha, qattiqroq qoidasini keltiradi. Sudya ikki matn o‘rtasida qaror chiqarishi kerak. Qaysi norma ustun?

Xalqaro huquq va milliy huquq o‘zaro qanday bog‘lanishini tushuntiruvchi ikki klassik yondashuv bor. Bular:

Monizm - huquqni yagona tizim deb bilish. Uning yirik namoyandasi Hans Kelsen xalqaro va ichki huquqni bitta piramidaning ikki qavati sifatida ko‘rgan. Bu qarashda xalqaro huquq odatda ustun turadi.

Dualizm (Heinrich Triepel, Dionisio Anzilotti) esa ikki huquqni alohida tizim deb hisoblaydi: xalqaro huquq davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ichki huquq esa davlat va uning fuqarolari munosabatlarini tartibga soladi. Shartnoma ichki tizimda kuchga ega bo‘lishi uchun maxsus “o‘tkazish” jarayoni kerak bo‘ladi.

Hozirgi dunyo bu ikki nazariyaning toza shaklida yashamaydi. Ko‘pchilik davlatlar aralash yo‘l tutgan. Shu bilan birga xalqaro huquqda 1969-yildagi Vena konvensiyasining 27-moddasidagi qoida hamma uchun asos bo‘lib qolgan: davlat o‘z ichki huquqini shartnomani bajarmaslik uchun uzr sifatida ko‘rsata olmaydi. Boshqacha aytganda, ichki ustunlik masalasi sud zalida hal bo‘lishi mumkin, lekin xalqaro maydonda majburiyat esa baribir qoladi va javobgarlik baribir kelib chiqadi.

Bunga turli davlatlar turlicha kirishadi. Misol uchun Niderlandiya shartnomalarga eng keng o‘rin beradigan davlatlardan biridir. Uning Konstitutsiyasi bo‘yicha shartnoma Konstitutsiyaga zid bo‘lsa ham parlamentning uchdan ikki ovozi bilan tasdiqlanishi mumkin. Lekin AQShda esa teskari tamoyil amal qiladi. Oliy sud “Reid v. Covert” (1957) ishida hech bir shartnoma hukumatga Konstitutsiya cheklaridan xoli vakolat bera olmasligini ta’kidlagan. Germaniyada esa xalqaro huquqning umumiy qoidalari qonunlardan ustun, shartnomalar esa odatiy federal qonun kuchiga ega. Konstitutsiyaviy sud hattoki inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasini sharhlashda yo‘l-yo‘riq sifatida hisobga olinishi kerakligini bildirgan. Rossiyada Konstitutsiyaning 15-moddasi shartnomalarni qonundan ustun qo‘yadi, lekin 2015-yildan keyin Konstitutsiyaviy sud va qonunchilik Yevropa Inson huquqlari sudi qarorlarini Konstitutsiyaga zid deb topilsa ijro etmaslik imkonini yaratdi. Bu esa «shartnoma ustunmi» degan savolning real siyosatda qanchalik nozik ekanini ko‘rsatadi.

Bu misollardan chiqadigan umumiy xulosa shuki, deyarli hamma joyda shartnoma odatiy qonundan yuqori yoki unga teng kuchga ega. Lekin asosiy qonun bilan to‘qnashganda so‘nggi so‘z ko‘pincha Konstitutsiyada qoladi yoki bunday to‘qnashuvning oldi oldindan olinadi.

Endi bizga muhimroq bo‘lgan savolga qaytsak. O‘zbekiston Konstitutsiyasi bunga nima deydi?

Savolga javob 2023-yilgi Konstitutsiyaning III bobi, 15-moddasida berilgan. Uning mazmunini ketma-ket o‘qib chiqamiz.

1. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi.
2. Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.
3. O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda huquqiy tizimning tarkibiy qismidir.

ISSN:2308-5703

Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* November, 2026

4. Agar xalqaro shartnomada qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Eng muhimi to‘rtinchi qismdagi so‘z, ya’ni shartnoma “qonun”dan ustun deyilgan. Konstitutsiya ham aslida “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi 682-sonli qonun 6-moddasiga ko‘ra qonun hujjati hisoblanadi. Demak rostan ham xalqaro shartnoma mamlakatimiz oliy yuridik qonunidan ustunmi?

Bunga javob biroz muammoli. Ushbu xalqaro shartnomalar qabul qilinishidan oldin davlatlar o‘rtasida muzokara va munozaralar yuritiladi, shartnomaning har bir bandi qayta-qayta tekshiriladi va hamma uchun manfaatli to‘xtamga kelinganidan so’ngini qabul qilinadi. Agar davlat ushbu jarayonda qatnasha olmasa yoki shartnomaning shartlariga ko’nmasa uni shunchaki ratifikatsiya qilmaslik huquqiga ega. Bu esa unga hech qanday majburiy yoki xalqaro shartnomani ustun ko’rish qoidasini yuklamaydi.

Endi o‘ylayotkan bo‘lsangiz kerak, agar o‘zimizga to‘g‘ri kelmaydigan shartnomani tan olib qo‘ygan bo‘lsakchi? Bunday holat katta ehtimol bilan sodir bo‘lmaydi. Katta ahamiyatga ega bo’lgan shartnomalar har doim hokimiyatimizning bir bo‘g‘ini bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkala palatasi tomonidan bir necha bor alohida majlislarda ko’rib chiqiladi va bu shartnomani ratifikatsiya qilish yoki qilmaslik bo‘yicha ko’plar muzokaralar yuritiladi. Agar hujjat qoidalari Konstitutsiyamiz atrofida qurilgan prinsp va normalar va huquq tizimimizga zid bo‘lmagan holatlarda ratifikatsiya qilinadi. Shuningdek, kelajakda davlat ushbu shartnomani tan olishni boshqa istamasa unda har doim denonsatsiya qilish huquqi saqlanib qoladi.

Shunda oxirgi marta savolga javob bersak. Xalqaro shartnomalar milliy qonunchilikdan ustunmi?

Ha, lekin bir vaqtning o‘zida yo‘q. Xalqaro shartnomalar barcha milliy huquq tizimlari manfaatlari e’tiborga olinib va umuminsoniy huquq prinsplari asosida tuziladi. Umuminsoniy prinsplar esa davlat qonunchilik tizimini shakllantirishga asos bo‘ladi. Bu ikkala tizimni esa Hans Kelsenning monizm g‘oyasi kabi aslida bitta tizim deb atash mumkin va ular bir biriga chambarchas bog‘liqdir.